ERTAK MATNIDA QO‘LLANUVCHI FOLKLORIZMLARNING LINGVOPETIK XUSUSIYATLARI

Solijonova Saodatxon Abdujabbor qizi
Fag‘ona davlat universiteti, tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0009-5297-4767
E-mail: http://E-mail:islomjon5329000@gmail.com

Annotatsiya
Folklorizm hodisasi yozuvchining individual uslubi, ichki maqsadi bilan xalq og‘zaki ijodi materiallarini o‘zining asariga singdirishi orqali yuzaga keladi.
Kalit so‘zlar: *folklorizm, folklorema, lingvopoetika.*

KIRISH

“Folklorizm” so‘zi aslida tibbiyot istilohi sifatida Gippokrat davridan buyon qo‘llanilib kelinadi.[1]Keyinchalik adabiyotshunoslik istilohi sifatida ushbu termin dastlab XIX-asrning ikkinchi yarmida fransuz folklori tarixi olimi P.Sebillo tomonidan taklif qilingan. Olim xalq og‘zaki ijodining jamiyat hayotidagi o‘rni, madaniyat va san’atda qo‘llanishini o‘rgangan.[2] Chistov tabiri bilan aytganda “ikkinchi shakl” deb ataluvchi folklorizmlar “ijodkor tomonidan ma’lum maqsad bilan badiiy asarga olib kirilgan, “ishlov” berilgan folklorga xos barcha materiallardir.[3] Folklorizm terminini tahlil qilsak, uning ildizi fransuz tilidagi “folklorisme” so‘ziga borib tarqalishi ma’lum bo‘ladi. Folklorizm fransuz tilidagi “folklorisme” (P.Sebillo) atamasidan olingan. Folklore ingliz tilida xalq og‘zaki ijodi ma’nosini -ism qo‘shimchasi esa grek tilidagi “yo‘nalish”, “oqim”, “xususiyat” ma’nosini bildiruvchi qo‘shimchadir.

“Folklorizm – bu ijodkorning xalq og‘zaki ijodida azaldan mavjud bo‘lgan syujet, obraz, motiv, xalqona uslubni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib qo‘yish emas, aksincha, folklorizm bu –ijodkorning folklor ijodiga qayta ishlov berib, o‘z ijodiy laboratoriyasini ziynatlab, boyitib, to‘ldirib, yangi asar yaratishi yoki asar ichida xalq maqollari va matallari, obrazli, qanotli ifodalarni, idiomalarni qayta stilizatsiya qilib, asarga singdirib yuborishdir”[4] Folklorizm hodisasi adabiyotshunoslikda yetarli darajada o‘rganilishgan bo‘lsada ammo tilshunoslik doirasida hali izchil darajada o‘rganilmagan. Shuning uchun ham biz folklorizm hodisasini tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish, o‘zaro farqlash va ilmiy asoslash muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. [1,78]

Mazkur maqolaning maqsadi folklorizmlarning lingvistik va lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash, ularning ertak matnidagi o‘rni va funksiyalarini tavsiflashdan iborat.

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/Фольклоризм

[2] https://ru.wikipedia.org/wiki/Фольклоризм

[3]Саримсоков Б Фолклоризмлар типологиясига доир// Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент , 1980. – N 4. – Б 39.

[4] S.Mamayusupova Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmlarning o‘rni

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tadqiqot davomida struktur, distribyutsion tahlil, transformatsion tahlil, komponent tahlil, kontekstual tahlil, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi. Folklorizmlarga oid mahalliy va xorijiy filolog: adabiyotshunos va tilshunoslarning ilmiy qarashlari o‘rganildi. Shuningdek, ertak matnida qo‘llaniluvchi maqol,ibora, og‘zaki nutqqa xos ifoda va oborotlar va murakkab folklorizmlar tarkibiga kiruvchi qo‘shiq, olqish, qarg‘ish, duo va ijtimoiy etnografik folklorizmlarning xususiyatlari o‘rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari folklorizmlar faqat adabiyot obyekti bo‘lishi bilan birga til nuqtai nazaridan ham tadqiqiot obyekti bo‘lishini ko‘rsatdi.

L.Sharipova bugungi kungacha o‘zbek filologiya namunalarida uchraydigan folklorizmlarni uch jihatga ko‘ra tasnif qiladi.

1. Qo‘llanish **davriga** ko‘ra: a) mumtoz folklorizm; b) zamonaviy folklorizm;
2. Qo‘llanish **o‘rniga** ko‘ra: a) badiiy folklorizm; b) publitsistik folklorizm;
3. Folklorizmlarning **sifatiga** ko‘ra: a)oddiy folklorizm; b)murakkab folklorizm;
4. Qo‘llanish **yo‘nalishi** va **vazifasi**ga ko‘ra: a) uslubiy - nutqiy folklorizm; b) kompozitsion folklorizm; v) ijtimoiy – etnografik folklorizm.[5]

Birinchi turdagi tasnifda folklorizmga nisbatan mumtoz hamda zamonaviy atamalarining qo‘llanilishiga guvoh bo‘lamiz. Mumtoz folklorizm atamasi mumtoz adabiyot vakillari ijodida qo‘llanilgan xalq og‘zaki ijodi materiallari (ibora, maqol, matal, ertak, afsona, rivoyat, qo‘shiq, qarg‘ish…)ga nisbatan ishlatilinadi. “Mumtoz shoirlar ijodida uchraydigan va keyingi davr shoirlari tomonidan an’anaviy tarzda qo‘llanilib kelayotgan folklorizmlarni shartli ravishda mumtoz folklorizm deb atash mumkin.[6] Misol uchun “Qissasi Rabg‘uziy” asarida “Tishisiz tiriklik yo‘q, tishi birla tinchlik ham yo‘q” bog‘lovchisiz qo‘shma gap orqali ifodalangan ham o‘z, ham ko‘chma ma’noga ega maqol orqali muallif tomonidan ayollarga xos umumiy xususiyatlar yengil kulgu ostida berilgan.[7]Biz ushbu maqolni mumtoz folklorizmning namunasi sifatida ifodalashimiz mumkin. Boisi, Rabg‘uziy mumtoz adabiyotimiz namoyondasi bo‘lib, uning asarlarini tahlil qilganimizda folklorizmlarning ko‘plab namunalarini mahorat bilan qo‘llaganligiga guvoh bo‘lamiz.

Zamonaviy folklorizm “mumtoz shoirlar ijodida uchraydigan folklorizmni keyingi davr shoirlari an’anaviy ko‘rinishda emas, aksincha mavjud ijtimoiy voqeliklar mazmuniga moslab qayta ijodiy yaratish” deb talqin qiladi.[8] Zamonaviy folklorizm tushunchasini ilmiy muomilaga ilk bor U.B.Dalgat tomonidan olib kirilgan.[9] Bugungi kun ijodkorlari ijodida uchrovchi folklorizmlarga misol uchun S.Mamayusupovaning “Shukr Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmlarning o‘rni” nomli nomzodlik ishini namuna sifatida keltirish mumkin. Muallif tomonidan “Bir mayzni qirq bo‘lib yemoq” ifodasi “Bir mayizni ikki bo‘lib yemoq” tarzida (**qirq** so‘zi **ikki** so‘ziga almashiniladi)

[5] Шарипова Л. Узбек шеьриятида фолклоризм. – Тошкент: Фан, 2011.
[6] Шарипова Л. Узбек шеьриятида фолклоризм. – Тошкент: Фан, 2011.
[7] Шукурова.З “Киссаси рабгузий” да фольклор аньаналари. Дисс… Тошкент- 2019
[8] Шарипова Л. Узбек шеьриятида фолклоризм. – Тошкент: Фан, 2011.

qo‘llaniladi.Masalan:“Eshakka o‘rnashib o‘tirgan kishi bo‘lib, Mo‘minga qaragandim, uning yuzidan menga achinganini payqab qoldim. Darxol, ko‘zimni qisdim. Bir mayizni ikki bo‘lib yeydigan Mo‘min do‘stim fikrimni payqadi. Asta sekin eshagi menga yaqinlashib keldi.[10]

Ikkinchi tasnif folklorizmlarning badiiy adabiyot bilan bir qatorda publisistika sohasida ham qo‘llanilish o‘rnini ko‘rsatadi. Albatta, bu tasnifda M.K.Azadovskiyni esga olmasdan iloji yo‘q. Sababi olim tomonidan publisistik matnlarda uchrovchi folklorizmlarni ilmiy folklorizm nomi ostida berishni taklif qiladi. U folklorizmlarni badiiy adabiyot doirasiga oid bo‘lmay ommaviy axborot vositalarida qo‘llanilishini “ilmiy” atamasi ostida nazarda tutgan bo‘lsada, bu biroz chalkashday nazarimizda. Biz ham folklorizmni “ilmiy” atamasi ostida berilishiga qarshimiz.[11] Chunki xalq og‘zaki ijodi materiallari har qanday matga stilizatsiyalashuvi muallifning badiiy mahorati tarzida namoyon bo‘ladi. Matnning estetik quvvatini, xalqchilligini oshiradi. Bizningcha ham LSharipovaning tasnifiga tayanib “folklorizmning ham publisistik asarda, ham badiiy asarda qo‘llanishini e’tiborga olib, ularni qo‘llanish o‘rniga ko‘ra farqlash maqsadida publisistik va badiiy folklorizm ko‘rinishida ikkiga ajratish”[12] to‘g‘riroq nazarimizda.

Uchinchi tasnifda folkorizmga nisbatan oddiy va murakkab atamalari qo‘llaniladi. Oddiy folklorizmlarga “ma’qol, matallar, yumuq iboralar, og‘zaki nutq uchun xos ifoda hamda oborotlar”[13]kiritiladi. Murakkab folklorizmlar esa analitik (olqish, qarg‘ish, duo, qo‘shiq), sintezlashgan (maqol, matal, ertak, afsona, rivoyatlarni bir umumiy mavzu ostida birlashuvi) stilizatsiya (maqol, ertak, afsona asosida yangi asar yaratilishi) harakteridagi folklorizmlarga ajratiladi.

Olima to‘rtinchi tasnifni A.A.Gorelovga asoslanganligini ammo uning qanday tamoyilga tayanganligi hamda ushbu tasnifni izoh va misollar orqali ochiq yoritmaganligini ta’kidlaydi. Shuningdek ushbu tasniflarni izohlab, “xalq maqollarining yozma adabiyotga ko‘chuvi, uning qo‘llanish maqsadi, ahamiyati uslubiy-nutqiy folklorizmni o‘rganishga asos bo‘ladi” deb ko‘rsatadi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib o‘quvchida folklorizm nutq hodisasimi yoki til hodisasimi kabi savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. Ammo e’tibor berib qaralsa, badiiy asarga ibora, maqol, matal, ertak afsona, rivoyat shu kabi inson ongida quyma shaklda tayyor turuvchi xalq og‘zaki ijodi materiallari singdiriladi. Shuning uchun ham biz folklorizmlarni til hodisasi sifatida ko‘ramiz. Lekin ularni nutq jarayonida so‘zlovchi tomonidan biror shaxs, narsa, predmet, voqea, hodisalarga o‘zini munosabatini ifodalash uchun, nutqini estetik boyitish uchun qo‘llanilishi folklorizmlarni nutqiy jarayon sifatida aks ettiradi.

[10] S.Mamayusupova Shukr Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o‘rni dissertatsiya Jizzax-2024
[11] Шарипова Л. Узбек шеьриятида фолклоризм. – Тошкент: Фан, 2011.
[12] Шарипова Л. Узбек шеьриятида фолклоризм. – Тошкент: Фан, 2011.21-bet.
[13] Саримсоков Б Фолклоризмлар типологиясига доир// Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент , 1980. – N 4. – Б 40.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Muallif bir vaqtning o‘zida xalq madaniyatining og‘zaki va yozma shakllarini o‘zida mujassam etadigan xalq lisoniy xotirasining ifodachisi hisoblanadi. Shu sababli yozuvchi lisoniy xotirasida mavjud bo‘lgan folklor an’analarini ongli ravishda yoki ichki his bilan o‘z asarlarida aks ettiradi. Bu an’analar mazkur xalqning o‘ziga xos bo‘lgan bilish tizimlariga ishora qiladi.

2. Folklor va adabiyotshunoslikda folklorizmlarning turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari chuqur o‘rganilgan. Ammo o‘zbek tilshunosligida ushbu masalalar shu vaqtga qadar alohida tadqiq obyekti bo‘lgan emas. Mazkur hodisani tilshunoslik, xususan, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopoetika, matn stilistikasi nuqtayi nazaridan o‘rganish bugungi tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азадовский М.К Статиье о литературе и фольклоре. – М-Л.:Гослитиздат, 1960. – Б. 128.

2. Выходцев П.С. Русская советская поэзия и народное творчество .- Л., 1963

3. Емельянов Л.И. К вопросу о фольклоризме древной русской литературы // Русской фольклор. Т. 7., М.-Л., 1962; Методологические вопросы фольклористики. - Л.: Наука, 1978.

3. Горелев А.А. Введение в книге: Русская литература и фольклор. - Л.: Наука, 1982.

4. Левинтон Г.А. Заметки о фольклоризме Блока // Миф-Фольклор-Литература. Л.: Наука, 1978.

5.Саримсоков Б Фолклоризмлар типологиясига доир// Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент , 1980. – N 4.

6. Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари // Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент , 1982. - 2-сон.

7. Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари // Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент , 1982. - 2-сон.